



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI
FRANSIYA OLIY PSIXOMOTOR REABLITATSIYA INSTITUTI
(ISRP)**

***«KLINIK PSIXOLOGIY, NEYROPSIXOLOGIYA VA PSIXOMOTOR
TERAPIYANING DOLZARB MUAMMOLARI» MAVZUSIGA
BAG‘ISHLANGAN
BIRINCHI O‘ZBEKISTON–FRANSIYA FORUMI***

TO‘PLAMI

Ushbu ilmiy ishlar to‘plamida tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchilar bajarayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari o‘rin olgan. Tezislarning mazmuni va ulardagi xatoliklar uchun mas’uliyat mualliflar zimmasidadir.

В сборник научных трудов вошли результаты научно-исследовательских работ, проведенных профессорско-преподавательским составом медицинских ВУЗов. Тезисы не рецензируются. За содержание и достоверность указанной информации ответственность несут авторы.

29-30-aprel 2026-yil. Urganch. O‘zbekiston

yondashuvlar ham bemorlarning psixoemotsional holatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatmoqda. Kognitiv-bixevioral terapiya, psixoedukativ mashg'ulotlar va relaksatsiya texnikasi kabi usullar stressni kamaytirish, emotsional nazoratni kuchaytirish va bemorlarning hayot sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli vaskulyar demensiya bilan og'rigan bemorlarda psixoemotsional labillikni o'rganish va uni psixoterapevtik usullar orqali korreksiya qilish masalasi tibbiy psixologiya va nevrologiya sohasida dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi: Vaskulyar demensiya bilan og'rigan bemorlarda uchraydigan psixoemotsional labillik darajasini o'rganish va psixoterapevtik usullar orqali uni kamaytirish samaradorligini baholash.

Tadqiqot metodlari: Tadqiqotda 60 nafar vaskulyar demensiya tashxisi qo'yilgan bemor ishtirok etdi. Ularning yoshi 55 yoshdan 75 yoshgacha bo'lib, barchasi nevrologik va tibbiy-psixologik tekshiruvlar asosida tanlab olindi. Bemorlar tasodifiy tanlov asosida ikki guruhga ajratildi: asosiy guruh (30 nafar) va nazorat guruhi (30 nafar).

Psixoemotsional holatni baholash uchun bir qator klinik-psixologik metodlar qo'llanildi. Jumladan, xavotir va depressiya darajasini baholash maqsadida HADS (Hospital Anxiety and Depression Scale) shkalasi qo'llanildi. Shuningdek, bemorlarning emotsional holati va affektiv reaksiyalarini aniqlash uchun neyropsixologik intervyu o'tkazildi. Bemorlarning kundalik xulq-atvori va emotsional reaksiyalari haqida qo'shimcha ma'lumot olish maqsadida ularning qarindoshlari bilan klinik suhbatlar tashkil etildi.

Asosiy guruhdagi bemorlar bilan 8 hafta davomida kompleks psixoterapevtik mashg'ulotlar o'tkazildi. Ushbu mashg'ulotlar kognitiv-bixevioral terapiya elementlari, stressni boshqarish texnikasi, nafas olish va relaksatsiya mashqlari hamda psixomotor terapiyani o'z ichiga oldi. Mashg'ulotlar haftasiga ikki marta individual va kichik guruh shaklida tashkil etildi.

Nazorat guruhiga esa standart medikamentoz davo qo'llanilib, psixoterapevtik aralashuv amalga oshirilmadi.

Tadqiqot natijalari: Tadqiqot boshida bemorlarning katta qismida psixoemotsional labillik belgilari aniqlandi. Xususan, ishtirokchilarning 68%ida kayfiyatning tez o'zgarishi, yig'loqilik va jahldorlik holatlari kuzatildi. Shuningdek, 52 % bemorda xavotir darajasi yuqori ekani, 47 %ida esa depressiv simptomlar mavjudligi qayd etildi.

Psixoterapevtik aralashuvdan so'ng asosiy guruhda emotsional holatda sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. HADS shkalasi natijalariga ko'ra, xavotir darajasi o'rtacha 35 %ga kamaydi, depressiv simptomlar esa 28 %ga pasaydi. Bemorlar o'z emotsiyalarini boshqarishda ancha barqarorlik namoyon qila boshladilar. Shuningdek, ularda stress omillariga nisbatan reaksiya darajasi pasaygani kuzatildi.

Nazorat guruhida esa emotsional holatdagi o'zgarishlar ancha kam bo'lib, psixoemotsional labillik belgilari aksar hollarda saqlanib qoldi.

Xulosa: Olib borilgan tadqiqot natijalari vaskulyar demensiyada psixoemotsional labillik keng tarqalgan klinik simptomlardan biri ekanini ko'rsatdi. Emotsional barqarorsizlik bemorlarning ijtimoiy moslashuviga va hayot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Kompleks psixoterapevtik yordam, jumladan kognitiv-bixevioral terapiya, relaksatsiya texnikasi va psixomotor terapiya bemorlarning emotsional holatini barqarorlashtirishda samarali ekani aniqlandi. Shu sababli vaskulyar demensiyani kompleks davolashda medikamentoz terapiya bilan bir qatorda psixoterapevtik aralashuvlarni ham qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

MULTIFOKAL ATEROSKLEROZDA PSIXOEMOTSIONAL LABILLIKNING PSIXODIAGNOSTIKASI

Ibodullayev Z.R., Qaraxonova S.A. Ernaeva G.X.

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Mavzuning dolzarbligi: Aholi qarishi bilan bog'liq holda multifokal ateroskleroz fonida kognitiv buzilishlar bilan kechuvchi nevrologik kasalliklar soni tobora ortib bormoqda. Ular

orasida o'tkir va surunkali insult, vaskulyar demensiya alohida o'rin tutadi va bu turdagi qon aylanishi buzilishi sababli rivojlangan demensiya sindromlarining keng tarqalgan turlaridan biri hisoblanadi. Vaskulyar demensiya miya qon tomirlarining aterosklerotik o'zgarishlardan shikastlanishi natijasida rivojlanib, kognitiv funksiyalar pasayishi, xotira buzilishi va fikrlash jarayonlarining sekinlashishi bilan namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, ushbu kasallikda kognitiv buzilishlardan tashqari psixoemotsional sohada ham turli o'zgarishlar kuzatiladi. Ayniqsa psixoemotsional labillik — kayfiyatning tez o'zgarishi, yig'loqilik, tez jahl chiqishi, affektiv reaksiyalarning nazoratsizligi va stress omillariga nisbatan ortiqcha emotsional javob kabi holatlar bemorlarda tez-tez uchraydi. Bunday holatlar bemorlarning ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi, oila a'zolari bilan munosabatlarni murakkablashtiradi va reabilitatsiya jarayonini qiyinlashtiradi.

Amaliyotda vaskulyar demensiya diagnostikasi ko'pincha nevrologik va kognitiv simptomlarni aniqlash bilan cheklanadi. Biroq psixoemotsional labillik kabi simptomlarning o'z vaqtida aniqlanishi bemorlarning psixoemotsional holatini baholash va kompleks reabilitatsiya choralari belgilashda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli multifokal aterosklerozda psixoemotsional labillikni erta va aniq diagnostikalash masalasi tibbiy psixologiya va nevrologiya sohasida dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi: Multifokal ateroskleroz fonida vaskulyar demensiya bilan og'riqan bemorlarda psixoemotsional labillikni aniqlashda klinik va psixologik diagnostik usullarning samaradorligini o'rganish.

Tadqiqot metodlari: Tadqiqotda 55 nafar vaskulyar demensiya tashxisi qo'yilgan bemor ishtirok etdi. Ularning yoshi 55–75 yosh oralig'ida bo'lib, barcha bemorlar nevrologik va klinik tekshiruvlar asosida tadqiqotga jalb etildi.

Psixoemotsional labillikni aniqlash maqsadida bir qator klinik-psixologik diagnostik usullar qo'llanildi. Jumladan:

HADS (Hospital Anxiety and Depression Scale) shkalasi – bemorlarda xavotir va depressiya darajasini baholash uchun;

Neyropsixologik intervyu – emotsional holat, affektiv reaksiyalar va xulq-atvor xususiyatlarini aniqlash uchun;

Klinik kuzatuv usuli – bemorlarning kundalik xulq-atvori va emotsional reaksiyalarini baholash uchun;

Bemorlar qarindoshlari bilan klinik suhbat – bemorlarning emotsional barqarorligi va kayfiyat o'zgarishlari haqida qo'shimcha ma'lumot olish maqsadida.

Olingan natijalar statistik tahlil qilindi va psixoemotsional labillik belgilari bilan bog'liq ko'rsatkichlar baholandi.

Tadqiqot natijalari: Tadqiqot natijalariga ko'ra, ishtirok etgan bemorlarning katta qismida psixoemotsional labillik belgilari aniqlandi. Xususan, bemorlarning 64 %ida kayfiyatning tez o'zgarishi va emotsional reaksiyalarning barqaror emasligi kuzatildi. 58 % bemorda yig'loqilik va emotsional sezgirlikning ortishi qayd etildi.

HADS shkalasi natijalariga ko'ra, bemorlarning 50 %ida o'rtacha darajada xavotir belgilari, 42 %ida esa depressiv simptomlar mavjudligi aniqlandi. Neyropsixologik intervyu jarayonida esa bemorlarning aksariyatida stress omillariga nisbatan ortiqcha emotsional reaksiyalar, jahldorlik va affektiv nazoratning susayishi kuzatildi.

Qarindoshlar bilan o'tkazilgan klinik suhbatlar ham bemorlarda kayfiyatning tez o'zgarishi, asabiylik va konflikt holatlarining ortishi kabi belgilarni tasdiqladi. Bu holatlar psixoemotsional labillik vaskulyar demensiyaning muhim klinik komponentlaridan biri ekanini ko'rsatdi.

Xulosa: Olib borilgan tadqiqot natijalari multifokal ateroskleroz fonida rivojlangan vaskulyar demensiyada psixoemotsional labillik keng tarqalgan simptom ekanini ko'rsatdi. Klinik kuzatuv, neyropsixologik intervyu va psixologik shkalalardan kompleks foydalanish psixoemotsional labillikni aniqlashda yuqori diagnostik ahamiyatga ega ekanini aniqlandi.

Shu sababli multifokal ateroskleroz fonida rivojlangan vaskulyar demensiya bilan ogʻrigan bemorlarni tekshirish jarayonida kognitiv baholash bilan bir qatorda psixoemotsional holatni ham kompleks diagnostik baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu esa bemorlarga koʻrsatiladigan tibbiy-psixologik yordam samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

WHAT THE FUTURE HOLDS FOR US, OR HOW M. FARADAY HELPS TREAT TREATMENT-RESISTANT MENTAL DISORDERS

Svetlana V. Kuzmina, Yuri Demin-Iliadi

FSBEI HE «Kazan State Medical University» Russian Ministry of Health, Kazan

CH Rives de Seine, Courbevoie, France

According to WHO, depression ranks 11th in the structure of all diseases leading to disability (Chand SP, Arif H., 2023), one in five patients with depression develops dependence on psychoactive substances, after the burden of cardiovascular pathology, depression ranks second in the cause of mortality. The monoamine theory, which is the foundation for the development of psychopharmacotherapeutic approaches, has been changing recently due to the available neuroimaging methods. It is known that more than 30% of patients with depression, designated as resistant, do not respond to antidepressant therapy. A new direction is being developed – connectomics, which explains the clinical symptoms of depression as a result of impaired functional connectivity, in particular, a triple network model of depression (Menon V., 2011). The depletion of cognitive resources is explained by the predominance of a passive mode of operation network, forming a vicious circle with impaired regulation of biased associative processing, the so-called «depressive rumination», supported by ineffective activation of a network of control functions and is closed by a third network of salience - a violation of network switching. Neuromodulatory techniques such as ECT and TMS can be an effective method of therapy based on connectome theory. Transcranial magnetic stimulation, which is currently widely used by rehabilitologists and neurologists, for the treatment of mental and behavioral disorders, is still of limited use. In psychiatry, ECT – electro-convulsive therapy has become widely known, the use of which has a number of significant limitations due to the requirements for the availability of intensive care equipment during its implementation. Transcranial magnetic stimulation is becoming more widespread not only in the world, but also in the Russian Federation. Being a non-invasive technique, TMS can be used both for diagnosis and for the treatment of a number of mental disorders. Neurostimulating therapy using targeted TMS can increase the frequency of achieving a therapeutic response in resistant variants of depression and provide a procognitive effect.

КОНТИНУАЛЬНАЯ КОНЦЕПЦИЯ ПСИХИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ У ИНОСТРАННЫХ ОБУЧАЮЩИХСЯ ПО МЕДИЦИНСКИМ СПЕЦИАЛЬНОСТЯМ

Николаев Е.Е., Орлов Ф.В.

Чувашский государственный университет им. И. Н. Ульянова, Чебоксары, Россия

Согласно ВОЗ, психическое здоровье представляет собой континуум, подверженный комплексному воздействию биологических, социальных и психологических детерминант. В данном континууме иностранные студенты-медики демонстрируют повышенную уязвимость, обусловленную синергетическим влиянием академического и аккультурационного стресса. Это обуславливает необходимость модификации традиционных стратегий психопрофилактики.

Для решения вопросов профилактики среди иностранных студентов наиболее подходящим видится подход ВОЗ, основанный на концепции «психического благополучия». Традиционную для психиатрии дифференциацию уровней расстройств

ЮРАК ИШЕМИК КАСАЛЛИГИДА УЙҚУДАГИ ОБСТРУКТИВ АПНОЭ СИНДРОМИНИНГ ҲАЁТ СИФАТИГА ТАЪСИРИНИ БАҲОЛАШ	42
ХАСАНОВА К.М., ИБДУЛЛАЕВ З.Р., СОБИРОВА Д.С.....	42
РАННЯЯ ДИАГНОСТИКА КОГНИТИВНЫХ НАРУШЕНИЙ И ПСИХОТЕРАПИЯ У ПОЖИЛЫХ ПАЦИЕНТОВ.....	43
БАЙРАМБЕК КУДАЙНАЗАРОВИЧ ШАНАЗАРОВ.....	43
VASKULYAR DEMENSIYADA PSIXOEMOTSIONAL LABILLIK VA UNING	44
IBODULLAYEV Z.R., QARAXONOVA S.A. ERNAEVA G.X.....	44
MULTIFOKAL ATEROSKLEROZDA PSIXOEMOTSIONAL LABILLIKNING PSIXODIAGNOSTIKASI	45
IBODULLAYEV Z.R., QARAXONOVA S.A. ERNAEVA G.X.....	45
WHAT THE FUTURE HOLDS FOR US, OR HOW M. FARADAY HELPS TREAT TREATMENT-RESISTANT MENTAL DISORDERS	47
SVETLANA V. KUZMINA, YURI DEMIN-ILIADI	47
КОНТИНУАЛЬНАЯ КОНЦЕПЦИЯ ПСИХИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ У ИНОСТРАННЫХ ОБУЧАЮЩИХСЯ ПО МЕДИЦИНСКИМ СПЕЦИАЛЬНОСТЯМ	47
НИКОЛАЕВ Е.Е., ОРЛОВ Ф.В.	47